

LIZING XIZMATLARNI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBNI XUSUSIYATLARI

Ergashev X.X. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsent
Mamatov F.K. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talaba
Lutfieva J.F. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talaba

FEATURES OF ACCOUNTING IN ENTERPRISES PROVIDING LEASING SERVICES

Ergashev Kh.Kh. Samarkand institute of economics and service dotsent
Mamatov F.K. Samarkand institute of economics and service student
Lutfieva J.F. Samarkand institute of economics and service student

Annotatsiya: Ushbu maqolada lizing xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobni xususiyatlarining asosiy masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Lizing, ijara, xizmatlar, xarajat, tannarx, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные вопросы особенностей бухгалтерского учета на предприятиях, оказывающих лизинговые услуги.

Ключевые слова: Лизинг, аренда, услуги, стоимость, себестоимость, учет, международный стандарт финансовой отчетности, финансовая устойчивость.

Abstract: In this article, the main issues of the characteristics of accounting in enterprises providing leasing services are considered.

Key words: Leasing, rent, services, cost, cost, accounting, international standard of financial reporting, financial stability.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning, texnik va texnologik qayta jihozlashning, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashning yangi va noan’anaviy usullarining joriy etilishi eng ustuvor va muhim masaladir.

O‘z navbatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanuvchi sub’ektlarni moliyaviy jihatdan ta’minalash orqali ulardagi mavjud iqtiodiy inqiroz yoki yetarli darajada aylanma pul mablag‘larining mavjud emasligi lizingga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Lizing tarixi



1-rasm Lizing tarixi

Lizing xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi muayyan xususiyatlarga ega, chunki lizing bitimlari moliyaviy va operatsion jihatdan farq qiladi va bu ularga soliq va amortizatsiya kabi ko'plab moliyaviy ta'sirlarni keltirib chiqaradi.

1-jadval

Lizing xizmatlarni xususiyatlari

Lizing bitimlarini tasniflash	Moliyaviy lizing:	Bu, lizing ob'ekti amalda foydalanuvchi tomonidan egallab olingen va uning moliyaviy holatini hisobga olishga imkon beruvchi lizing turi. Korxona lizing ob'ektining qiymatini balansida aks ettiradi
	Operatsion lizing	Bu bitimda lizing ob'ekti korxonada bo'lib, lekin u uzoq muddatga ega emas. Bunday holatda, korxona lizing to'lovlarini xarajat sifatida hisobga oladi.
Lizing ob'ektining hisobga olinishi	Moliyaviy lizing:	Lizing ob'ekti korxona balansiga kiradi va uni amortizatsiya qilish kerak. Bunda lizing qiymati asosida amortizatsiya ajratiladi.
	Operatsion lizing	Lizing ob'ekti balansda aks etmaydi. Faqat lizing to'lovlarini operatsion xarajat sifatida kiritiladi
Lizing to'lovlarini va daromadlarni hisoblash	Lizing to'lovlar, asosan, ikkita komponentga bo'llinadi: asosiy qarz va foizlar. Buxgalteriya hisobida to'lovlar aynan shu ikki qismdan iborat bo'lib, har biri alohida hisobga olinadi.	
	Moliyaviy lizingda, lizing xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona daromadlarni lizing bitimining kelishilgan qiymati bo'yicha hisoblaydi.	
Lizing shartnomasi va hisobni tuzish	Moliyaviy lizing:	Lizing ob'ekti aktiv sifatida, lizing majburiyatları esa passiv sifatida ko'rsatiladi.
	Operatsion lizing	Faqat lizing to'lovlarini xarajat sifatida ko'rsatiladi, aktiv va passivlar balansida ko'rsatilmaydi

Birinchidan lizing shartnomasining muddati ham buxgalteriya hisobiga ta'sir qiladi. Agar lizing muddati uzoq bo'lsa, unda lizing ob'ekti korxona balansida uzoq muddatli aktiv sifatida ko'rsatiladi.

Ikkinchidan moliyaviy lizingda lizing ob'ekti amortizatsiyaga tushadi, bu degani, lizing xizmatini ko'rsatuvchi korxona lizing ob'ektining qiymatidan ma'lum foizni har yili hisoblab, amortizatsiya sifatida xarajatga kiritadi.

Uchinchidan lizing shartnomasiga ko'ra, lizingni ko'rsatuvchi korxona lizing majburiyatlarini o'z balansida qarz sifatida ko'rsatadi. Bu majburiyatlar korxonaning moliyaviy holatini aks ettiradi. Moliyaviy lizingda lizingni to'lash bo'yicha barcha majburiyatlar qarz sifatida aks ettiriladi.

To'rtinchidan Operatsion lizingda, korxona lizing to'lovlarini daromadlar bo'yicha xarajat sifatida hisobga oladi. Bunda, lizing shartnomasiga muvofiq, xarajatlar mutanosib ravishda, asosan, kvartal yoki yillik ravishda kiritilishi mumkin.

Beshinchidan lizing xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar soliq hisoboti tuzishda, lizing bitimlari bilan bog'liq xarajatlar va daromadlarni soliq solish bazasiga kiritadilar. Moliyaviy lizingda amortizatsiya, operatsion lizingda esa to'lovlar soliq hisoboti uchun hisobga olinadi.

Oltinchidan lizing to'lovlarini to'lanayotganda, asosiy qarz va foizlar alohida-alohida ko'rsatiladi. Bu lizing xizmatini ko'rsatuvchi korxona uchun muhim hisoblanadi, chunki foizlar xarajat sifatida, asosiy qarz esa kapital o'zgarishi sifatida hisobga olinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki lizing rivojlanishning turli bosqichlarida turli xil yondashuvlar asosida talqin etildi, bunga asosiy sabablardan biri iqtisodiy inqiloblar natijasida aholining moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib borib, moliyaviy imkoniyatlar qisqara borishi natijasida jamiyatdagi ishlab chiqarish vositalari nomutanosib ravishda taqsimlanishi yuzaga kela boshladi. Albatta bunday holatni optimal yechimga ega bo'lgan moliyaviy richaklar asosida oldini olish zarur edi, buni yechimi tadbirdorlar tomonidan o'ylab topilgan ijara munosabati edi. Dastaval bu munosabatlarga nisbatan shunchaki ijara faoliyati tushunchasi sifatida qaralgan bo'lsa keyinchalik ijara keng tushuncha ekanligi, moliyaviy investitsiyalashning jozibadorligini oshirish doirasida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tizim sifatida qaralib uning huquqiy amalga oshirish doirasi kengaytirishga, moliyaviy ijara tushunchasini bugungi zamon talablari asosida tarqalishiga zamin bo'ldi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Urazov K. B. "Buxgalteriya hisobi va audit" Toshkent–2020
2. Anatolevna, Savinova Galina. "Korxonalarida xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanishni masalalari." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.04 (2024): 422-429.

3. Imamova, Nasiba Muzafarovna. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishda xorij tajribasi."ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi 3.11 (2023): 107-115.

4. Ширинов, У. А. (2022). ПОЧТА ХИЗМАТЛАРИНИНГ ҲИСОБ ВА АУДИТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДАГИ ТАСНИФИЙ АСОСЛАРИ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 804-809.

5. Пўлатов, X. (2024). САВДО КОРХОНАЛАРИДА ЧЕГИРМАЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 485-491.

6. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. - T .: «Fan va tehnologiya» 2004y

7. O.T.Hazratqulov. Xalqaro moliyaviy lizing shartnomasi /O'quv qo'llanma.– Toshkent.:TDYuI, 2010. 66-bet.